

FERMER XO‘JALIKLARI FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH ASOSIDA IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA‘MINLASH

Qodirov Zohidjon Eralievich

Andijon davlat texnika instituti

i.f.f.d. PhD, dotsent

E-mail: zohidjonmatematik7218@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu ishda fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy rivojlanishini optimallashtirishga oid nazariy va amaliy yondashuvlar yoritilgan. Optimal resurs taqsimoti, xarajatlarni kamaytirish, hosildorlikni oshirish va daromadni maksimallashtirishga qaratilgan zamonaviy iqtisodiy tahlil usullari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, iqtisodiy modellar asosida fermer xo‘jaliklarining barqaror rivojlanishi, investitsiya samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: fermer xo‘jaligi, iqtisodiy rivojlanish, optimallashtirish, resurslar taqsimoti, xarajatlar, hosildorlik, daromadni maksimallashtirish, investitsiya samaradorligi, iqtisodiy modellar, barqaror rivojlanish.

Аннотация

В данной работе рассматриваются теоретические и практические подходы к оптимизации экономического развития фермерских хозяйств. Анализируются современные методы экономического анализа, направленные на оптимальное распределение ресурсов, сокращение издержек, повышение урожайности и максимизацию доходов. Также предлагаются рекомендации по обеспечению устойчивого развития фермерских хозяйств, повышению эффективности инвестиций и укреплению конкурентоспособности на основе экономических моделей.

Ключевые слова: фермерское хозяйство, экономическое развитие, оптимизация, распределение ресурсов, издержки, урожайность, максимизация доходов, эффективность инвестиций, экономические модели, устойчивое развитие.

Abstract

This study explores theoretical and practical approaches to optimizing the economic development of farming enterprises. It examines modern economic analysis methods aimed at optimal resource allocation, cost reduction, productivity improvement, and income maximization. The paper also provides recommendations for ensuring sustainable development, enhancing investment efficiency, and strengthening the competitiveness of farming enterprises based on economic modeling.

Keywords: farming enterprise, economic development, optimization, resource allocation, costs, productivity, income maximization, investment efficiency, economic models, sustainable development.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning barqaror rivojlanishi aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash, qishloq

joylarda bandlikni oshirish va eksport salohiyatini yuksaltirishda muhim o‘rin tutadi. Fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining asosiy subyektlari sifatida iqtisodiy o‘rishni ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy rivojlanishini optimallashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy rivojlanishini optimallashtirish masalalari milliy qonunchilik, davlat strategiyalari hamda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan.

Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda bozor mexanizmlarini chuqur joriy etish, fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarishni tashkil etish, moliyaviy natijalarni boshqarish hamda daromadlarni oshirish masalalarini huquqiy jihatdan tartibga solish lozim [1],[2].

Axborot shaffofligi, hisob-kitoblar aniqligi va boshqaruv samaradorligini oshirish orqali qishloq xo‘jaligi subyektlari, jumladan, fermer xo‘jaliklari iqtisodiy rivojlanishini optimallashtirish, fermer xo‘jaliklarida iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish va prognozlashda matematik hamda axborot modellaridan foydalanish risklar yuqori bo‘lgan sharoitlarda iqtisodiy rivojlanishni optimallashtirish uchun muhim ahamiyatga ega [3],[4],[5],[6].

Ekonometrik tadqiqotlarda fermer xo‘jaliklarida daromad va xarajatlar o‘zgarishining yer, mehnat va kapital xarajatlari bilan o‘zaro bog‘liqligi modellashtirilgan. Iqtisodiy-matematik modellar, ekonometrik tahlil va sun‘iy intellekt asosida boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari qo‘shimcha chuqur tadqiqotlarni talab etadi [7],[8],[9],[10].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy rivojlanishini optimallashtirish jarayonlarini o‘rganishda kompleks va tizimli yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy tahlil usullarining o‘zaro uyg‘unligiga asoslanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda asosiy iqtisodiy subyektlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda ularning yalpi mahsulot hajmi va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari o‘sib borayotgan bo‘lsa-da, iqtisodiy samaradorlik darajasi hududlar va xo‘jaliklar kesimida bir xil emas. Bu holat resurslardan foydalanish darajasi, texnologiyalar joriy etilishi hamda boshqaruv tizimining samaradorligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab fermer xo‘jaliklarida yer va suv resurslaridan to‘liq va oqilona foydalanilmayapti, ishlab chiqarish xarajatlarining ulushi yuqori bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, mehnat unumdorligining pastligi va kapital qo‘yilmalar samaradorligining yetarli emasligi daromad o‘rishini cheklamoqda. Shuning uchun

fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy rivojlanish holatini kompleks tahlil qilish optimallashtirish chora-tadbirlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarni shartli ravishda ichki va tashqi omillarga ajratish mumkin. Ichki omillarga yer maydoni va uning unumdorligi, mehnat resurslari, asosiy vositalar, moliyaviy imkoniyatlar hamda boshqaruv darajasi kiradi. Tashqi omillar esa bozor konyunkturasi, davlat qo‘llab-quvvatlashi, kredit resurslariga kirish imkoniyati, soliq siyosati va tabiiy-iqlim sharoitlari bilan belgilanadi.

Ayniqsa, ishlab chiqarish resurslarining o‘zaro mutanosibligi iqtisodiy samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yer, mehnat va kapital xarajatlarining optimal nisbati saqlanmagan hollarda fermer xo‘jaliklarida xarajatlar oshib, rentabellik pasayishi kuzatiladi. Shu bois mazkur omillarning ta‘sirini ilmiy asosda baholash va optimallashtirish zarurati mavjud.

Fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy rivojlanishini optimallashtirishda iqtisodiy-matematik modellashtirish muhim vosita hisoblanadi. Modellashtirish orqali ishlab chiqarish natijalari bilan resurslar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, turli ssenariylar bo‘yicha iqtisodiy natijalarni prognoz qilish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot doirasida fermer xo‘jaliklari daromadining yer, mehnat va kapital xarajatlariga bog‘liqligini aks ettiruvchi ekonometrik modellardan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, resurslardan samarali foydalanish darajasi oshgan sari daromad va rentabellik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada o‘sadi. Modellashtirish natijalari fermer xo‘jaliklari uchun optimal ishlab chiqarish hajmlari va xarajatlar tarkibini belgilash imkonini berdi.

Fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy rivojlanishini optimallashtirish quyidagi asosiy yo‘nalishlar orqali amalga oshirilishi mumkin: resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlash, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, mahsulot sifati va qo‘shilgan qiymatni oshirish hamda boshqaruv tizimini takomillashtirish.

Raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt va noaniq mantiqiy modellardan foydalanish fermer xo‘jaliklarida qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtiradi. Bu esa risklarni kamaytirish, bozor o‘zgarishlariga tez moslashish va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval.

Andijon viloyatida paxta va bug‘doy ekin maydonlari hamda yetishtirilgan xom ashyolar¹

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar								2024-yilda 2017-yilga nisbatan o‘shish, foizda
		2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	
1	Barcha toifadagi xo‘jaliklarda yetishtirilgan paxta xom ashyosi, ming tonna	239,4	216,9	258,1	268,2	279,7	277,4	263,3	222,3	-7,1

¹ Ўзбекистон Республикаси миллий статистика қўмитаси

№	Ko'rsatkichlar	Yillar								2024-yilda 2017-yilga nisbatan o'sish, foizda
		2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	
2	Barcha toifadagi xo'jaliklarda paxta ekin maydoni, ga	89259	81617	79099	75643	76309	72883	68306	67018	-24,9
3	Hosildorlik ga/s	26,8	26,7	32,6	35,5	36,7	38,1	38,5	33,2	23,9
4	Barcha toifadagi xo'jaliklarda yetishtirilgan bug'doy, ming tonna	491,8	466,4	479,9	511,8	519,5	544,6	549,1	537,9	9,4
5	Barcha toifadagi xo'jaliklarda bug'doy ekin maydoni, ga	82466	78462	76276	74038	76224	75166	72455	72259	-12,4
6	Hosildorlik ga/s	59,64	59,44	62,92	69,13	68,15	72,45	75,78	74,44	24,8

Jadval ma'lumotlari 2017–2024-yillar mobaynida barcha toifadagi xo'jaliklarda paxta va bug'doy yetishtirish hajmi, ekin maydoni hamda hosildorlik ko'rsatkichlarida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'lganini ko'rsatadi.

2017-yilda paxta xom ashyosi yetishtirish hajmi 239,4 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 222,3 ming tonnaga yetgan. Nominal jihatdan kamayish kuzatilgan - 7,1 %. Shu bilan birga, paxta ekin maydoni 2017-yilda 89 259 gektardan 2024-yilda 67 018 gektargacha qisqarib, 24,9 % ga kamaygan. Bu holat paxta yetishtirish hajmini saqlab qolishda hosildorlik oshishi asosiy omil bo'lganini ko'rsatadi. Xususan, gektaridan olinadigan hosil 2017-yilda 26,8 s/ga bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 33,2 s/ga yetgan va 23,9 % ga oshgan. Demak, paxtada yetishtirishni intensiv usullariga o'tish, agrotexnologiyalarni takomillashtirish va resurs tejamkorlik choralari ijobiy samara bergan.

Bug'doy yetishtirish hajmi 2017-yilda 491,8 ming tonnani tashkil etgan bo'lib, 2024-yilda 537,9 ming tonnaga yetgan. O'sish sur'ati 9,4 % ni tashkil etgan. Shu bilan birga, bug'doy ekin maydoni 82 466 gektardan 72 259 gektargacha qisqarib, 12,4 % ga kamaygan.

Mazkur tendensiya ham bug'doy yetishtirishda hosildorlikning ahamiyati ortib borganini ko'rsatadi. Jumladan, gektariga hosildorlik 2017-yilda 59,64 s/ga bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 75,44 s/ga yetgan va 24,8 % ga oshgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda fermer xo'jaliklarining iqtisodiy rivojlanishini optimallashtirish masalalari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, fermer xo'jaliklarida iqtisodiy samaradorlik darajasi, avvalo,

resurslardan foydalanish samaradorligi, ishlab chiqarish xarajatlari tuzilmasi va boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslanganligiga bevosita bog'liqdir.

Andijon viloyati misolida paxta va bug'doy yetishtirish dinamikasini o'rganish natijasida ekin maydonlari qisqargan sharoitda ham hosildorlik oshishi hisobiga yalpi mahsulot hajmini barqaror saqlash va ayrim hollarda oshirish mumkinligi aniqlandi. Bu holat qishloq xo'jaligida intensiv rivojlanish omillarining ustuvor ahamiyat kasb etayotganini tasdiqlaydi.

Iqtisodiy-matematik modellashtirish asosida o'tkazilgan tahlillar fermer xo'jaliklarida yer, mehnat va kapital resurslarining optimal nisbatini ta'minlash daromadni maksimallashtirish va rentabellikni oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va zamonaviy iqtisodiy tahlil usullarini joriy etish fermer xo'jaliklarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Tahlil natijalaridan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- 2017–2024-yillarda paxta va bug'doy ekin maydonlari qisqargan bo'lsa-da, mahsulot ishlab chiqarish hajmi nisbatan barqaror saqlangan;
- ishlab chiqarish hajmini saqlab qolish va oshirishda hosildorlikning o'sishi hal qiluvchi omil bo'lgan;
- intensiv rivojlanish modeli ekstensiv ishlab chiqarishga nisbatan samarali ekanligi tasdiqlangan;
- bu holat fermer xo'jaliklari iqtisodiy rivojlanishini optimallashtirish modellarini qo'llash zaruratini yanada kuchaytiradi.

Ushbu an'analar fermer xo'jaliklarida yer resurslaridan samarali foydalanish, ilmiy asoslangan agrotexnologiyalarni joriy etish hamda iqtisodiy-matematik modellar orqali ishlab chiqarishni boshqarish muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-3107036>

2. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustda «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-275195>

3. S.S. G'ulomov, R.H. Ayupov, O.M. Abdullaev, G.Z. Boltaboeva. Raqamli iqtisodiyda blokchayn texnologiyalari // Toshkent, 2019.

4. Б.Б.Беркинов. Вопросы моделирования и информатизации управления в агропромышленном комплексе Узбекистана. АН РУз. Доклады республиканской научно-технической конференции. 5-6 сентябрь 2011г.

5. Д.Т.Мухамедиева. Разработка моделей слабо формализуемых процессов и принятие решений на основе обработки нечеткой информации. Автореф. дис. док. тех. наук.- Ташкент: АН РУз НТЦ «Современные информационные технологии», 2006.-35 с.

6. А.М.Гатаулин и др. Математическое моделирование экономических процессов в сельском хозяйства. –М.: Агропромиздат, 1990.-432 с.

7. Qodirov Zohidjon, Abduhoshimov Kamoliddin. Ishlab chiqarish hajmini kengaytirishda investitsiya salohiyatini oshirish yo‘llari //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 58. – №. 4. – С. 406-413.

8. Кодиров З. Метод моделирования нечетких множеств факторов развития фермерской деятельности и их взаимозависимости //Экономика и инновационные технологии. – 2021. – №. 5. – С. 210-220.

9. Qodirov Z. Fermer xo‘jaliklarida daromad va xarajatlar o‘zgarishini er, mehnat va kapital xarajatlar bilan o‘zaro bog‘liqligining ekonometrik modellari //Muhandislik va iqtisodiyot. – 2024. – Т. 2. – №. 4.

10. Berkinov B.B, Kodirov Z.E. Tendencies of agricultural development in Uzbekistan and directions for increasing the efficiency of farmers’ activities.TSUE International Online Conference “Sustainable agricultural development and regional cooperation for inclusive growth in Central Asia”20 — 22 October 2020, s 24-33.

11. O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, yanvar, 1-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**